

## 2019 yilning yanvar-may oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

### RAQAMLAR:


<b>5051,0</b> mlrd.so'm sanoat ishlab chiqarish hajmi	<b>99,3%</b> sanoat ishlab chiqarish indeksi
<b>803,9</b> mlrd.so'm iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi	<b>108,0%</b> o'sish sur'ati
<b>19,9%</b> sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi	<b>15,9%</b> istemol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'iycha 2019 yilning yanvar-may oylarida respublika korxonalari tomonidan 5051,0 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 99,3% ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 88,0% tashkil etadi.

Sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 7,5% tashkil etti.

### 2019 yilning yanvar-may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



### ***Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 170,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,4% ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha ohoktosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1,2% ga oshganligini kuzatish mumkin va gaz kondensati 11,1% ga, tabiiy gaz 4,8% ga pa'sayishi kuzatildi.



### ***Yanvar-may oylarida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2019 yilda ishlab chiqarilgan	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
74264,0	<b>Ohoktosh, t</b> 	73413,0	101,2 ↑
69,8	<b>Gaz kondensati, ming t.</b> 	78,6	88,9 ↓
2567,5	<b>Tabiiy gaz, mln.kub.m</b> 	2695,9	95,2 ↓


### ***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***



2019 yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4447,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 88,0% ni tashkil etdi.







Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,6% (2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan 0,01%) ni o'rta-yuqori texnologiyali 66,7% (74,3), o'rta-quyi texnologiyali 5,9% (3,1%), va quyi texnologiyali 25,8% (22,6%) tashkil etdi.






### ***2019 yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi b6yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi***



O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan, tozalangan guruch 23,7% ga, bug'doy noni 15,8% ga , yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa 12,1% ga yumshoq bug'doy uni 7,1% ga va aroq 0,3% ga oshganligini va paxta tolasi, makaron mahsuloti o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada pasayganligini kuzatish mumkin.

**Yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2019 yilda ishlab chiqarilgan	ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlar	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
	<b>Paxta tolasi, t</b>		
24916,0		37975,6	65,6 ↓
	<b>O'simlik yog'i (tozalangan), t</b>		
6413,8		7111,8	90,2 ↓
	<b>Tozalangan guruch, t</b>		
2765,3		2235,1	123,7 ↑
	<b>Yumshoq bug'doy uni, t</b>		
34000,4		31736,6	107,1 ↑
	<b>Bug'doy noni, t</b>		
1107,4		956,1	115,8 ↑
	<b>Makaron mahsuloti, t</b>		
630,1		1240,9	50,8 ↓

<b>Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, t</b>				
20475,2		18267,0	112,1	↑
<b>Aroq, ming.l. 100% spirt</b>				
1620,3		1615,9	100,3	↑
<b>Karbonat dinatriya, ming.t.</b>				
80,0		78,6	101,8	↑
<b>Polietilen, t.</b>				
152484,3		168657,5	90,4	↓
<b>Polipropilen, t.</b>				
39415,7		42239,9	93,3	↓

### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 379,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (7,5% ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-may oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,1% ga oshganligin, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish 2,3% ga kamayganligi kuzatildi.



### **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.**




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 54,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1% ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni 12,9% ga pasayganligin, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning 5,8% ga oshganligi, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning 24,7% ga pasayganligi kuzatildi.

### **Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.**


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 803,9 mlrd.so'mni o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 8,0% ni tashkil etti va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 15,9% ni tashkil etdi.

### **2019 yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so'mda)**



2018 yilning yanvar-may oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 62,3% dan 2019 yilning yanvar-may oylarida 62,7% ga o'sishi kuzatilmoqda.

***Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %***




***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi***

Hisobot davrida xoriji investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3042,4 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xoriji investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumi ishlab chiqarishdagi ulushi 60,2 % tashkil etti.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmdagi ulishi, %**



**Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi**


Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Nukus shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 66,2% dan ulushini), Taxiato'sh (6,6%), Xo'jayli (3,9%), Amudaryo (3,6%), Mo'ynoq (2,7%) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulushi Taxtako'pir (0,2%), Shumanay (0,3%), Nukus (0,5%) va Chimboy (1,7%) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajminig eng katta qismi Nukus shahar (jami iste'mol tovarlari hajmining 31,9 %), Xo'jayli (11,8%), Beruniy (9,2%), To'rtko'l (7,3%), Qo'ng'iro't (6,6%), Amudaryo (5,9%), Ellikqal'a (5,7%) tumanlarida ishlab chiqarildi.




**2019 yilning yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish va xalq istemol mollari ishlab chiqarish (% da)**



**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshishini ta'minladi, va kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 19,9% tashkil etmoqda.

**2019 yilning yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shumanay va Ellikqal'a (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Qorao'zak (99,99%), Taxtako'pir(99,0) , Chimboy (92,5%) va Nukus (88,2%) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Nukus shahrida (7,1%), Mo'ynoq (11,2%), Taxiatosh (11,8%) va Qonliko'l (27,7%) tumanlarida kuzatildi.

### **Foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar.**

Bugungi kunda respublikada 2093 sanoat korxonalari foaliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning 413 tasin yangi sanoat korxonalari tashkil etadi. Yangi tashkil etilgan korxonalarining qariyb 52,1% Nukus shahri, Amudaryo, To'rtko'l, Beruniy va Ellikqal'a tumanlariga to'g'ri keladi.

#### **2019 yil 1 iyun holatiga foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni, birlik**



**Q.R Statistika boshqarmasi**  
**sanoat statistikasi bo'limi**

**Aloqa telefoni: (61) 222-75-87**